

MUVAFFAQIYATLI SPORTCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Farg'onan davlat universiteti
Psixologiya (sport) yo'naliishi III kurs talabasi
Sultanboyeva Maftuna Marat qizi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada muvaffaqiyatli sportchilarning asosiy psixologik xususiyatlari – o'ziga ishonch, stressni boshqarish, diqqatni jamlash, ichki motivatsiya va emotsiyonal barqarorlik kabi jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik tayyorgarlikning musobaqalardagi natijalarga ta'siri, psixologik trening va ruhiy chidamlilikni shakllantirish usullari haqida ilmiy ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari sportchilarni har tomonlama rivojlantirishda psixologik yondashuvning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: muvaffaqiyat, sportchi shaxsi, psixologik tayyorgarlik, stress, motivatsiya, ruhiy barqarorlik.

Annotation

This article analyzes the key psychological traits of successful athletes such as self-confidence, stress management, concentration, internal motivation, and emotional stability. It also discusses how psychological preparation influences competitive performance and explores methods to develop mental toughness and resilience. The research highlights the importance of psychological support in the holistic development of athletes.

Аннотация

В данной статье анализируются ключевые психологические характеристики успешных спортсменов, такие как уверенность в себе, управление стрессом, концентрация внимания, внутренняя мотивация и эмоциональная устойчивость. Также рассматривается влияние психологической подготовки на результаты соревнований и методы формирования психологической устойчивости. Исследование подчеркивает важность психологической поддержки в комплексном развитии спортсменов.

Kirish

Muvaffaqiyatli sportchi shunchaki jismoniy kuchga emas, balki ruhiy barqarorlikka, o'zini anglashga va psixologik chidamlilikka ham ega bo'ladi. Zamonaviy sportda raqobat darajasi oshib borar ekan, sportchilarning psixologik tayyorgarligi va ularning ruhiy salohiyati ham muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Psixologik xususiyatlar sportchining o'ziga bo'lgan ishonchi, stressga bardoshliligi, diqqatni

boshqarish qobiliyati va motivatsiyasi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada aynan muvaffaqiyatli sportchilarning psixologik portreti, ularning xatti-harakatlari va ichki holatlari tahlil qilinadi.

Muvaffaqiyatli sportchilarning psixologik profili ularning sportdagi yutuqlarida katta ahamiyatga ega. Sportchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonch eng muhim psixologik komponentlardan biridir. O‘ziga ishonch sportchining o‘z imkoniyatlarini yuqori baholashi, raqibdan qo‘rmasligi, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi va o‘zini nazorat qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Muvaffaqiyatli sportchilar, odatda, yuqori darajada ijobjiy o‘z-o‘zini baholashga ega bo‘lib, bu ularga musobaqa oldidan ishonch bilan tayyorgarlik ko‘rish va bosim ostida muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beradi. Shuningdek, diqqatni boshqarish qobiliyati ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, sportchi o‘z maqsadiga to‘liq yo‘naltirilgan holda harakat qilishni o‘rganadi.

Ichki motivatsiya va maqsadga yo‘naltirilganlik

Muvaffaqiyatli sportchilar kuchli ichki motivatsiyaga ega bo‘ladilar. Ular sportni nafaqat moddiy manfaatlar yoki tashqi mukofotlar uchun emas, balki o‘z shaxsiy maqsadlari va o‘sish uchun tanlaydilar. Bu motivatsiya ularni har kuni mashg‘ulotlarda qatnashishga, o‘z ustida ishlashga, muvaffaqiyatsizliklardan saboq olishga undaydi. Ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan sportchi har qanday qiyinchilikka bardosh bera oladi, chunki u muvaffaqiyat sari intilishining negizida o‘z istak va maqsadlari yotganini biladi. Maqsadga yo‘naltirilganlik esa ularga vaqt va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, strategiyalarni ishlab chiqish, o‘z ustida doimiy ishslash imkonini beradi.

Stressni boshqarish va emotsiyal barqarorlik

Sport faoliyati davomida yuzaga keladigan stress va bosim holatlarini boshqarish sportchining ruhiy salomatligi va samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Muvaffaqiyatli sportchilar stressni ijobjiy tarzda qabul qilishni, ya’ni uni energiyaga aylantirishni o‘rganadilar. Ular turli relaksatsiya metodlari, nafas olish mashqlari, vizualizatsiya texnikalari va meditatsiya orqali o‘z holatini barqarorlashtira oladi. Emotsional barqarorlik esa ularni raqobatli muhitda o‘zini yo‘qotmasdan, hissiyotlarga berilmadan harakat qilishga undaydi. Aynan mana shu fazilatlar sportchining stabil natijalar ko‘rsatishiga yordam beradi. Musobaqa jarayonida sodir bo‘ladigan kutilmagan holatlar, raqibning ustunligi yoki hakamlik xatolari kabi omillar sportchining psixologik bardoshliliginini sinovdan o‘tkazadi.

Psixologik tayyorgarlikning metodikasi

Muvaffaqiyatli sportchilar muntazam psixologik tayyorgarlikdan o‘tadilar. Bu jarayon quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Vizualizatsiya: sportchi musobaqa jarayonini tasavvur qilib, uni ichki ruhiy darajada mashq qiladi.

Konsentratsiya: sportchi diqqatini faqat belgilangan vazifaga yo‘naltiradi va tashqi omillardan chalg‘imaydi.

Maqsad qo‘yish texnikasi: qisqa va uzoq muddatlari maqsadlarni belgilab, ularga erishish strategiyalarini ishlab chiqadi.

O‘z-o‘zini ruhlantirish: musbat affirmatsiyalar orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Psixologik salomatlik va sportdagi barqarorlik

Sportchining ruhiy holati va emotsiyal muvozanati uning sportdagi barqarorligi va sog‘lom faoliyat yuritishiga ta’sir qiladi. Depressiya, asabiylilik, tushkunlik kabi ruhiy holatlar sportchilarning natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, sport psixologlari doimiy ravishda sportchilarning psixologik salomatligini kuzatib borishlari zarur. Psixologik barqarorlik sportchining nafaqat individual, balki jamoaviy muvaffaqiyatida ham muhim omil sanaladi.

1. Muvaffaqiyatli sportchi shaxsining asosiy psixologik ko‘rsatkichlari

Muvaffaqiyatli sportchilarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlar quyidagilardir:

- Yuqori darajadagi o‘ziga ishonch
- Maqsadga yo‘naltirilganlik
- Stressni boshqarish qobiliyati
 - Emotsional barqarorlik
- Ichki motivatsiya

2. Psixologik tayyorgarlik va uning ahamiyati

Sportchilarning doimiy psixologik tayyorgarligi ular uchun qat’iyat, irodaviy sifatlar va musobaqa jarayonida o‘zini boshqarish imkonini beradi. Treninglar orqali diqqatni jamlash, o‘zini ruhlantirish, vizualizatsiya va relaksatsiya kabi metodlar o‘rgatiladi.

3. Muvaffaqiyatga ta’sir qiluvchi psixologik omillar

- Oilaviy qo‘llab-quvvatlash
- Murabbiy bilan munosabat
- Jamoaviy muhit
- Ilgari erishilgan natijalar
- Motivatsion manbalar

Xulosa

Muvaffaqiyatli sportchilarning ruhiy holati ularning sportdagi barqarorligi va yutuqlari uchun muhim poydevor hisoblanadi. Psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik va ichki motivatsiya sportchining yuqori natjalarga erishishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, sportchilar bilan ishlovchi mutaxassislar – psixologlar, murabbiylar – ularning psixologik salohiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. Human Kinetics, 2019.
2. Hanin Y.L. Emotions in Sport. Human Kinetics, 2000.
3. Hasanov B.X. Sportchilarda ruhiy tayyorgarlik. Samarqand, 2018.
4. Mahmudova S. Sport psixologiyasi asoslari. Toshkent, 2017.
5. Orlick T. In Pursuit of Excellence. Human Kinetics, 2008.
6. Hardy L., Jones G., Gould D. Understanding Psychological Preparation for Sport. Wiley, 1996.